# QURILISH ISHLARI

## 2020- yil yanvar-avgust oylarida

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida jami 1362,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 96,2 % ni tashkil qildi.







Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo’yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 26,6 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 70,9 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 1218,0 mlrd. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining 89,4 % ni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 118,1 mlrd. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 63,5 % ni tashkil qildi.



Ma’lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu-o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



# Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 66,8 % ni tashkil etdi.





Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 24,3 % ni tashkil eti.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 8,9 % to‘g‘ri keldi.

# Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

*(jamiga nisbatan, % da)*

**2019- yil yanvar-avgust**

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Binolar va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 8,9 | 23,4 | 66,8 |

**2020- yil yanvar-avgust**

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Binolar va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 8,9 | 23,4 | 66,8 |

*Ma’lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topadi.*



# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi

*(mlrd. so'm)*

| | Jami qurilish ishlari | shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo'yicha | | |
|---|---|---|---|---|
| | | yirik qurilish tashkilotlari | kichik korxona va mikrofirmalar | norasmiy sektor |
| **Sirdaryo viloyati** | **1362,7** | **26,6** | **1218,0** | **118,1** |
| *shaharlar* | | | | |
| **Guliston** | **523,5** | **8,7** | **493,5** | **21,3** |
| **Shirin** | **62,9** | **-** | **61,2** | **1,7** |
| **Yangiyer** | **119,4** | **-** | **114,0** | **5,4** |
| *tumanlar* | | | | |
| **Boyovut** | **102,2** | **0,4** | **90,3** | **11,5** |
| **Guliston** | **64,8** | **-** | **52,9** | **11,9** |
| **Mirzaobod** | **114,1** | **17,1** | **90,7** | **6,3** |
| **Oqoltin** | **93,2** | **-** | **87,5** | **5,7** |
| **Sardoba** | **26,9** | **-** | **19,0** | **7,9** |
| **Sayxunobod** | **54,7** | **0,1** | **47,8** | **6,8** |
| **Sirdaryo** | **121,2** | **0,1** | **89,9** | **31,2** |
| **Xovos** | **79,8** | **0,2** | **71,2** | **8,4** |

# Hududlarda qurilish ishlarining o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)*




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o‘sish sur’ati 113,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Guliston tumanida 97,1 % hamda Xovos tumanida 100,3 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o‘sish sur’ati Sardoba tumanida kuzatilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 94,3 % ni tashkil qildi.



# Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo‘yicha qurilish ishlari

*(jamiga nisbatan, % da)*

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1218,0 mlrd. so‘m yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 89,4 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 101,8 % ni tashkil qildi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 26,6 mlrd. so‘m yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 1,9 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 70,9 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 118,1 mlrd. so‘m yoki jami qurilish ishlarining 8,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 63,5 % ni tashkil qildi.





# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

*(jamiga nisbatan, % da)*




Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 54,7 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,0 % ni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga kapaydi.





Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 1308,0 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 96,0 % ni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga kamayish) tashkil qildi.



# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

*(jamiga nisbatan, % da)*




Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 38,4 % ga to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 8,9 %, Yangiyer shahriga 8,8 %, Mirzaobod tumaniga 8,4 % va Boyovut tumanida 7,5 % dan to‘g‘ri keldi.



**Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi**
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi.**

**Aloqa telefoni: (67) 225-02-37**
**(67) 236-86-27**